YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI
Volume 5 Issue 5 Sentabr 2026
https://phoenixpublication.net/ Online ISSN: 3030-3494

ROMANLAR TURKUMIDA TEMURIY SHAHZODALAR VA SAROY XONIMLARI OBRAZI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b, fffd (PhD),
E-mail:elmurodjumayev272@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-7433-7706

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiy romanlar turkumida Temuriy shahzodalar va saroy xonimlari obrazlarining yaratilishi, ularning tarixiy-badiiy talqini hamda obrazlar tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Temuriylar davri tarixiy voqealari, saroy hayoti, sulolaviy munosabatlar va davlat boshqaruvi jarayonlarining shahzodalar hamda saroy xonimlari obrazlari orqali badiiy ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Maqolada shahzodalarning hukmdor avlodi, davlat arbobi, sarkarda va inson sifatidagi qiyofalarini yaratishda tarixiy manbalar hamda badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Temuriy shahzodalar va saroy xonimlari obrazlarining individual xarakteri, ruhiy kechinmalari, ma’naviy-axloqiy qarashlari hamda tarixiy shaxslar bilan munosabatlari ochib beriladi. Romanlar turkumida ushbu obrazlarning o‘zaro munosabati orqali temuriylar davrining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy muhitini badiiy gavdalantirish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *romanlar turkumi, Temuriylar, Temuriy shahzodalar, saroy xonimlari, tarixiy obraz, badiiy talqin, tarixiy roman, tarixiy shaxs, sulolaviy munosabatlar, saroy hayoti, shahzoda obrazi.*

Kirish. Amir Temur obrazi aks etgan Muhammad Ali tetralogiyasi va Nurali Qobulning turkum romanlari tarixiy roman talablariga to‘la mos keladi. Ushbu romanlar o‘tmishning e’tiborga molik davri keng ko‘lamda aks etgan va tarixiy shaxs obrazining ruhiy holati va kechinmalari chuqur yoritilgan tarixiy-biografik romanlardir.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy maqsadi, taniqli rumin komparativisti A. Dyumaning xulosalariga ko‘ra, uch xil turdagi hodisalarni o‘rganish bilan belgilanadi: 1. Adabiyotlararo to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar–tarjimalar, ta’sir, o‘zlashtirmalar; 2. Genetik qardoshlikda bo‘lmagan, lekin ma’lum mavzu, mif, obraz, janr, o‘xshash adabiy oqimlarni tadqiq etishda namoyon bo‘luvchi genetik o‘xshashliklar; 3. Milliy adabiyotlarning o‘ziga xos jihatlari.[141]

[141] Дюма А. Принципи сравнительного литературуроведения. –Москва: Прогресс, 1977. – С. 121.

Milliy adabiyotimizdagi yutuqlar, eng avvalo, Sharq ma’naviyati, mumtoz adabiy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Mustaqillikdan keyin yaratilgan tarixiy romanlarda Sharq madaniyati, axloqi va adabiy an’analari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu, avvalo, asar arxitektonikasi va g‘oyaviy ko‘lamida falsafiy teranlikning, ma’naviy yetuklikka, komil inson darajasiga da’vat motivlarining yetakchilik qilishida, tasvir va uslubda nafosat va go‘zallik ko‘lamining ustuvorligi, hayotbaxsh didaktikaning ijtimoiy qatlamlariga xos tabiiy zarurat darajasida namoyon bo‘lishi kabi poetik unsurlar mazmunida kuzatiladi. Bunday xususiyat “Ulug‘ saltanat” epopeyasi va “Temuriylar” romanlar silsilasida ma’lum miqdorda ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Muhammad Ali va Nurali Qobulning Amir Temur haqida yaratilgan tarixiy asarlari hamda mumtoz qissa va doston janrlari o‘rtasida muayyan tipologik munosabat mavjud. “Ulug‘ saltanat” epopeyasi va “Temuriylar” romanlar silsilasida Qur’oni karimda keluvchi qissalar syujeti va bayon usulining ta’siri kuzatiladi. Tarixiy romanga qo‘l urgan har ikki yozuvchi Qur’oni karim va hadislardan iqtibos olish bilan bir qatorda, muqaddas kitobda keluvchi oyatlarga tez-tez murojaat qilishadi. Qahramonning fikrlarini asoslash, yo biror jiddiy ish yuzasidan hukm chiqarish, voqelikka baho berish, olam va odam haqida o‘z fikrlarini xulosalash, buyuk maqsadlarni amalga oshirishdan oldin Yaratgandan ko‘mak so‘rash, yalinib-yolvorish niyatida keltiriladigan oyatlar va ularning sharh-u izohlari o‘quvchini qahramonlar xarakteri, e’tiqodiga hurmat uyg‘otibgina qolmay, ularning ichki olami bilan yanada yaqinlashtiradi.

Ayrim xalq qissalarini poetik interpretatsiya qilishga urinish “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasi semantik-struktural qurilishi va epik bayon uslubiga muayyan darajada ta’sir qilganligi seziladi. Jahon va XX asrda yaratilgan mumtoz tarixiy romanlarga xos syujet, obraz, bayon usullari ijodiy o‘zlashtirilib, ramziy usulda asar syujet va obrazlariga tatbiq qilinadi. “Umuman, muayyan romanda muallif ilgari surayotgan konsepsiyani asoslashga xizmat qiluvchi kiritmalar, deb yozadi I.Yoqubov, – badiiy mazmun va poetik tasvir nuqtayi nazaridan uning semantik-strukturasi, uslubiy ifoda maromiga muvofiqlashmoqda. Bu jihat u yoxud bu romanda xalqona pand-nasihat ruhi kuchayib, ibratomuz didaktik xulosa yetakchilik qilishiga ham olib keldi”. Uning ta’kidlab ko‘rsatishicha, yuqoridagi kabi tipologik uyg‘unliklar hozirgi adabiy jarayonda an’anaviy janrlar, badiiy komponentlararo modifikatsiyalashuv, sintezlashuv jarayonlari kechayotgani, ilmiy-adabiy faoliyatda balog‘at ilmini o‘zlashtirishga intilish mavjudligi, ijod ahlining o‘zligi va borliqning ilohiy mohiyatini anglash ma’rifatida sog‘lomlashish jarayoni kechayotgani belgilaridir[142] .

[142] Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. –Б. 66-69.

O‘z taraqqiyotining sintetizm bosqichida bo‘lgan hozirgi o‘zbek adabiyotida tarixiy romanchilik ham yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Janr doirasidagi differensiatsiya va sintez jarayonlarining yuzaga chiqishi Sharq-islom ma’rifati va badiiy-estetik tafakkur prizmasi negizida kechmoqda. Bashariyat poetik tafakkurining barcha namunalari keng epik doirada qamralib, muayyan badiiy umumlashmalar chiqarishga urinish kuchaygan hozirgi bosqichda janr va uning ichki shakllari poetik strukturasida namoyon bo‘layotgan xronotop ko‘lami, kompozitsiya, syujet, obraz, motiv, uslub singari poetik birliklarga xos belgi-sifatlar ham muayyanlashmoqda. Shu ma’noda, har bir roman o‘ziga xos struktural-semantik va poetik ifoda arsenaliga ega. Binobarin, bu romanlarni muallif biografiyasi, adabiy muhiti, estetik ideali, ijodiy metodi singari umumestetik muammolar bilan bir qatorda, alohida janr namunasi yaxlit poetik sistema ekani jihatidan ham o‘rganish lozim. Roman tabiatiga xos sintetiklik, poetik ifoda rakurslari turfalashuvi endilikda muallif yondashuvini epik xronotop, epik syujet, obrazlar olami, ifoda ko‘lami masalalarini umumbashariy adabiyotning odam va olam munosabatlarining ilohiy garmoniyasi, eposlar turkumiga xos Vatan va alp tushunchalari, mif va mifopoetika, xronotop nazariyasi singari markaziy konsepsiyalarini san’atning miniatyura, teatr, kino kabi sintetik janrlariga daxldor an’analar ijodiy o‘zlashtirilishi aspektida tipologik tadqiq qilishga izn beradi. Roman xronotopi, kompozitsiyasi, fabulasi, syujeti, obrazlar olami va poetik ifoda yo‘sinlarida muayyanlashayotgan o‘zgarishlar mustaqillik davri plyuralistik tafakkuri hosilasidir. Holbuki, yaqin o‘tmishda ham roman epik konsepsiyasi va obrazlari mohiyatini tarixiy-genetik asoslariga bog‘lash, kosmik miqyoslarda idroklash: Olloh–borliq–inson uchligi asosida tushunish va tushuntirish imkonsiz edi.

Sohibqiron so‘nggi paytlarda o‘g‘li Jahongir Mirzo, qizi Oqa begim va nabirasi Muhammad Sultonni eslab, ko‘ziga yosh olardi, bu gal ham shunday bo‘ldi. Sog‘inch xonim olib kelgan marhum valiahd Muhammad Sultonning xotira daftari va o‘z qo‘li bilan ko‘chirishni boshlagan, ammo tugatish nasib qilmagan Qur’oni karim uni o‘ylantirib qo‘ydi. Shahzoda 69-surani ko‘chirgan, biroq 70-suraga o‘tish unga nasib qilmagandi. Shunda Amir Temurning xayolidan o‘zining ham 69 yoshda ekanligi ko‘nglidan kechadi. 69 raqamining har ikki tomondan bir xilda o‘qilishida qandaydir sir bordek tuyuladi.

Amir Temur tushida “kimsasiz manzilda oq narvon ko‘zga tashlandi. Ajabo, narvonning na ko‘kda tutqichi bor edi, na yerda tirgagi. Amir Temur beixtiyor o‘sha tomonga qarab yurdi...”[143]

Sohibqiron narvonning 69 poyasiga chiqqanidan so‘ng u birdan g‘oyib bo‘ladi. 69-sura, 69-poya uning qismatiga daxldor nishona, belgi edi.

[143] Муҳаммад Али. Улуғ салтанат –(Шоҳрух Мирзо) 4- китоб.– Тошкент: Наврўз, 2019. –Б. 476.

Unga piri Mir Sayyid Baraka Haqqa yetishmoq uchun yetti vodiy: Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqr-u fanodan o‘tish kerakligini aytgandi. Amir Temur otasi bilan birga yetti vodiydan o‘tadi, har bir vodiyda o‘zining bobo-yu bobokalonlarini uchratadi, ular : Amir Burkul, Ilpngiz Bahodir, Amir Iyjal no‘yon, Amir Qorachar, Erdamchi barlos, Qochuvli bahodir. Va nihoyat, bamisli olam uzra tiklangan qubbaday buyuk Arshi a’lo ko‘rinadi.

Tush asnosida ota va o‘g‘ilning birgalikdagi safaridan so‘ng qahramon birdan Jahongir Mirzoning o‘limidan keyin dunyo ishlaridan ko‘ngli sovib, Bog‘i Chinorda yotib olganini, piri murshidi Mir Sayyid Barakaning Qur’on tilovat qilganini, Arshi a’lo namoyon bo‘lganini, ming-ming quyoshdan ham kuchliroq shu’la taratayotgan Arshi a’loga boqqanida yuzlari kuyar darajadagi haroratdan yuzini qo‘llari bilan bekitganini eslaydi. “Lekin hozir Arshi a’lodan taralayotgan nur yuzlarni kuydirmas, balki yoqimli va sehrli harorat bilan bor vujudni, ruhni erkalar, o‘ziga tortardi...

Tong otgan edi!”

Tadqiqot muhokamasi. Tanishganimizdek, asarda mazkur tush bilan roman badiiy voqeligi uzviy tutashib, asar leytmotivida muhim o‘rin tutuvchi “Qur’on” va “narvon” detallari ilohiy mohiyatiga ishora qilinadi. Yozuvchi roman ramziy asosida ham o‘tganlar ruhining g‘ayrishuuriy tarzda avlodlarni qo‘llab, madad berayotganiga ishora qilmoqda.

Eslatish o‘rinliki, Hamletning otasi (V.Shekspir), Mirzo Ulug‘bek va Abdullatif ko‘rgan tushlarda (O.Yoqubov) ham ota ruhining paydo bo‘lishi bu xarakterlar ruhiyatini yorqinroq ochishda g‘oyaviy-estetik ahamiyat kasb etgan, ayni paytda, muhim kompozitsion vazifa bajargan, ularda ham istiqbolda sodir etilishi lozim bo‘lgan voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qilingandi.

Milliy roman spetsifikasida ham boshqa janrlarni sintez qilish hollari kuzatildi. Keyingi yillar o‘zbek romanlari genetik jihatdan nafaqat folklor, balki klassik epos bilan ham chambarchas aloqador ekani oydinlashdi. Epik turning hajman salmoqli va murakkab janri bo‘lgan roman semantik-strukturasidagi o‘zgarishlar uning taraqqiyotini belgilay boshladi. Milliy roman keyingi rivoji doimiy poetik o‘zgarishlar og‘ushida kechdi. Badiiy sayqallanish va syujet tarmoqlanishi, kompozitson yaxlitlikka erishish imkoniyatlari ortishi, shuningdek, so‘z siqiqligi, fikr kengligiga intilish kuchayishi shular jumlasidandir. Mustaqillik davri tafakkur ufqlari kengayishi bir jihatdan, roman-epopeyalar yuzaga kelishiga, ikkinchidan, janrning nisbatan ixcham ko‘rinishlarini (mini-roman) paydo bo‘lishiga olib keldi. Chunki, roman odam va olamni miqyosli anglash, ularni badiiy ifodaga ko‘chirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Bu janr tobora globallashayotgan, intensivlashayotgan hayot shiddati va zamondoshimiz kayfiyat-hollarini aks ettiradi. Binobarin, roman “kichraytirilgan koinot”

(Saltikov-Shchedrin) va “miniatyuradagi olam”ga (V.G.Belinskiy) aylandi. Uning uchun hajm kattaligi emas, balki mazmun qamrovining kengligi va teranligi muhimdir[144].

Xulosa. Umarshayx Mirzoning vafoti, o‘zi amirzoda bo‘laturib, o‘gay o‘g‘lining valiahd deb e’lon qilinishidan norozi bo‘lgan, xoin amirlarning qutqusiga uchib, o‘z otasiga qarshi borgan Mironshoh Mirzo haqida so‘z boradi. U katta akasi valiahd shahzoda Jahongir Mirzo vafotidan yetti yil o‘tib, uning bevasi Xorazm malikasi Xonzoda xonimga uylangan edi. Garchi, u ham kanizak (Mengli bika)dan tug‘ilgan farzand bo‘lsa-da, o‘zini hamisha taxtga munosib nomzod o‘rnida ko‘rib keladi. Mironshoh Mirzo otdan yiqilib, xasta bo‘lib qolgach, ruhiyati sharobga mayl ko‘rsatib, saltanat ishlarida sustkashlikka yo‘l qo‘yadi, atrofidagi fitnachi ayonlarning nog‘orasiga o‘ynaydi. Ayniqsa, tarixda nom qoldirish uchun nomdor imoratlar, muhtasham saroylarni “Ostiga xazina ko‘milgan!” - degan bahona bilan buzdirib yuborishi va xazinaga kelib tushadigan xirojni talon-toroj qilib yuborishi Xonzoda xonimni butkul o‘zidan bezdirib yuboradi, oqibatda, Xorazm malikasi uni tashlab ketadi. Kitobda, shuningdek, To‘xtamishxonning butkul tor-mor etilishi ham tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дюма А. Принципи сравнительного литературуроведения. –Москва: Прогресс, 1977. – С. 121.
2. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. –Б. 66-69.
3. Муҳаммад Али. Улуғ салтанат –(Шоҳруҳ Мирзо) 4- китоб.– Тошкент: Наврўз, 2019. –Б. 476.
4. Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: ТДПУ, 2013. –Б. 35

[144] Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: ТДПУ, 2013. –Б. 35.